

ILMIY ANJUMANLAR UCHUN TEZIS (CONGRESS ABSTRACT) O'PKA ARTERIAL GIPERTENZIYASIDA 6 DAQIQALIK YURISH TESTINING XAVF STRATIFIKATSIYASIDAGI O'RNI

Abdujabborov D.T.

Hojamberdiev M.A.

Andijon davlat tibbiyot instituti, Andijon, O'zbekiston

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20640437>

Dolzarbligi: O'pka arterial gipertenziyasida (O'AG) kasallik prognozini to'g'ri baholash va o'ng qorincha yetishmovchiligi xavfini kamaytirish uchun xalqaro ko'rsatmalarda ko'p parametrlil stratifikatsiya modellaridan foydalanish talab etiladi. 6 daqiqalik yurish testi (6DYT) klinik amaliyotda eng ko'p qo'llaniladigan funksional mezonlardan biridir.

Tadqiqot maqsadi: O'AG bo'lgan bemorlarda 6DYT masofasining (6DYM) xavf guruhlari va metabolik buzilishlar bilan korrelyatsion aloqalarini baholash.

Material va usullar: Prospektiv tadqiqotga 1-guruh O'AG tashxisi qo'yilgan 54 nafar bemor (48.5 ± 12.3 yosh) jalb etildi. Bemorlarda ESC/ERS tavsiyalari bo'yicha 6DYT, JSST funksional sinfi va lipidlarning o'ta oksidlanishi markeri — malondialdegid (MDA) darajasi tekshirildi va bemorlar 6 oy davomida kuzatildi.

Natijalar: Bemorlarning dastlabki xavf profili: 15% — past, 55% — o'rta va 30% — yuqori xavf guruhini tashkil qildi. 6DYM ko'rsatkichlari JSST funksional sinfi bilan yuqori darajada teskari bog'liqlik namoyon etdi ($r = -0.72$, $p < 0.001$). Shuningdek, 6DYM masofasi eng qisqa bo'lgan yuqori xavfli guruhda MDA miqdori eng yuqori darajada ekanligi aniqlanib, oksidlovchi stress bilan bevosita bog'liqlik tasdiqlandi. 6 oylik kuzatuv davomida 6DYM <165 m bo'lgan bemorlar guruhida kasallikning klinik yomonlashuvi tufayli gospitalizatsiya darajasi 45% ni tashkil etdi. Davolash asnosida 6DYM masofasining 30–50 metrga ortishi (MCID) barqaror klinik yaxshilanish va qayta gospitalizatsiyaning nolga tenglashishi (0%) bilan kechdi.

Xulosa: 6DYT O'AG bilan og'rigan bemorlarda xavf darajasini to'g'ri baholash, o'ng qorincha miokardidagi tizimli metabolik o'zgarishlarni bilvosita monitoring qilish va davolash taktikasini erta kuchaytirish uchun yuqori prognostik qiymatga ega bo'lgan ishonchli skrining usulidir.